

”Uzbekistan Airways” AJ rahbariyati tomonidan navbatdagi sayyor qabul Xorazm viloyatining Urganch shahrida bo‘lib o‘tdi

2021 26 Noyabr

Unda jismoniy va yuridik shaxslar, aviachiptalar sotuvi bo‘yicha agentlari, turistik kompaniyalar, tadbirkorlik subyektlari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Yig‘ilish qatnashchilariga boshqa aviakompaniyalar tomonidan sotilgan chiptalar va parvozi amalga oshmay qolgan reyslar haqida to‘liq ma‘lumot berildi. Yo‘lovchilar bunday holatda qayerga murojaat qilishlari kerakligi batafsil tushuntirildi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, ushbu bo‘lib o‘tgan hodisalarga nima sabab bo‘lganligi o‘rganilayotganligi haqida aytib o‘tildi.

Sayyor qabulda aviachiptalar sotuvi bo‘yicha agentlari, turistik kompaniyalar vakillari, yo‘lovchilarni qiynayotgan muammolar bo‘yicha savol-javob tariqasida ishtirokchilar bilan muloqot qilinib, aholining murojaatlari atroflicha o‘rganib chiqildi. Murojaatlarning aksariyat qismi joyida yechimini topdi, qo‘shimcha o‘rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar bo‘yicha mas‘ul rahbar va xodimlarga tegishli topshiriqlar berildi.

- Bugungi qabul savol-javoblar shaklida o‘tdi.

Aviakompaniya fuqaro-yo‘lovchilar fikrlari bilan qiziqayotgani va o‘rganayotgani juda quvonarli. Bu yaxshi tomonga o‘zgarishga imkon beradi, - deydi Xorazm viloyati turizm va sport Bosh boshqarmasi ta‘lim va ilm-fan rivojlantirish bo‘yicha mutaxassisi Abdulla Xodjayev.

Joylarda o‘tkazilayotgan bunday sayyor qabullar muammolarni hal etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Xalq bilan muloqot tarzida bo‘lib o‘tadigan bu kabi sayyor qabullar doimiy ravishda Respublikamizning barcha hududlarida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Telegram: t.me/uzbekistanairways